



“SO‘ZLASHUV NUTQI SINTAKSISI” TANLANMA FANINING ASOSIY VAZIFALARI

Andaqulova Komila Farxod qizi

*Samarqand davlat universiteti qoshidagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati
insituti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “So‘zlashuv nutqi sintaksisi” tanlanma fanining asosiy vazifalari va so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda so‘zlashuv nutqi maxsus tayyorgarliksiz shakllanadigan alohida nutqiy sistema ekanligi, uning elliptik xarakteri, ekspressivligi va ohang imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada so‘zlashuv nutqi sintaksisining asosiy vazifalari sifatida sintagmatik bo‘laklar, dialogik replikalar va ilovali qurilmalarning jonli nutqdagi o‘rni misollar orqali ko‘rsatib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *so‘zlashuv nutqi, sintaksis, elliptik xarakter, ekspressivlik, operativlik, dialogik replika, ilovali qurilma, sintagmatik bo‘lak.*

Аннотация: *В данной статье освещаются основные задачи элективного курса «Синтаксис разговорной речи» и специфические особенности разговорной речи. В исследовании анализируется разговорная речь как отдельная речевая система, формирующаяся без специальной подготовки, а также её эллиптический характер, экспрессивность и интонационные возможности. Кроме того, в статье на примерах показана роль синтагматических единиц, диалогических реплик и присоединительных конструкций в живой речи как основных задач синтаксиса разговорной речи.*

Ключевые слова: *разговорная речь, синтаксис, эллиптический характер, экспрессивность, оперативность, диалогическая реплика, присоединительная конструкция, синтагматическая единица.*

Abstract: *This article highlights the main objectives of the elective course “Syntax of Colloquial Speech” and the specific characteristics of colloquial speech. The study analyzes colloquial speech as a separate linguistic system that functions without prior preparation, emphasizing its elliptical nature, expressiveness, and intonation capabilities. Furthermore, the article demonstrates the role of syntagmatic units, dialogic replicas, and appositive (inserted) constructions in live speech as the primary focus of colloquial syntax through various examples.*

Keywords: *colloquial speech, syntax, elliptical nature, expressivity, operativity, dialogic replica, appositive construction, syntagmatic unit.*

Suhbatlashuv nutqi – maxsus tayyorgarlik ko‘rilmay shakllangan nutqiy sistema. Suhbatlashuv jarayonida suhbatdoshlar bir-birining savoliga javob berganda tayyorgarlik ko‘rmay, vaziyatga qarab fikr yuritadilar. Bunda suhbatdoshlar faolligi va operativligi yaqqol

ko'zga tashlanadi. Faollik va operativlik natijasida til vositalarini iqtisod qilishga intiladilar.[1/22-bet].

So'zlashuv nutqining o'ziga xosliklari: nutqning elliptik xarakteri: Qorami? Ko'kmi?; Til birliklari ekspressivlik imkoniyatlarining kengligi. Masalan, ulguramizmi? Degan savolga yo'q, ulgurmaymiz deyishdan ko'ra vaziyatdan kelib chiqib, ulgurib bo'pmiz, ulgurish qayoqda, ulgurib ham bo'ldik singari javoblar birmuncha tabiiy va ekspressivroq bo'lib chiqadi. Bu uslubda ohang- intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda katta. [2/66-bet].

So'zlashuv nutqini tadqiq qilgan ba'zi olimlar fikricha, ushbu nutqiy hodisa, o'z xususiyatiga ko'ra nutqning har qanday boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi va bu alohida turdagi nutqdir. Masalan, I.R. Galperin so'zlashuv nutqini adabiy tilga qiyosan va unga munosabatiga ko'ra alohida nutq turi deb ko'rsatgan. Uning fikricha, bunda, so'zlashuv nutqining shakliy tomoni yetakchi o'rin tutadi. So'zlashuv nutqining ayrim ko'rinishlarini kuzatgan L.V. Shcherba shunday yozgan edi: «Adabiy til so'zlashuv tilidan juda farqlanadi, shuning uchun ba'zan ikki til haqida gapirishga to'g'ri keladi». So'zlashuv nutqini adabiy tilning funksional nutqlaridan biri deb yuritish mumkin emasligi bir qator tilshunoslarni so'zlashuv nutqini alohida til, alohida tip nutq deb atash lozim, degan fikrga olib kelgan. Avvalo, bu fikrni M.V. Panov va keyinchalik bir qator tilshunoslar aytishgan. [1/5-bet].

So'zlashuv nutqi sintaksisi tanlanma fani aynan jonli so'zlashuv jarayonida yuzaga keladigan og'zaki nutqiy birliklarni o'rganish va talabalarga bu haqida ma'lumot berishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib olgan. Shunga ko'ra fan doirasida so'zlashuv nutqining qanday jihatlarini tadqiq etishni o'z oldiga vazifa qilib olganligini ko'rib chiqamiz:

So'zlashuv nutqi sintaksisi va gapnig sintagmatik bo'laklari

Sintagmalar nutq jarayonida ritmik guruhlar bilan bir-biridan ajralarkan, ko'p vaqt o'zining hajmi va chegarasi e'tibori bilan gapga ham, so'z birikmasiga ham mos kelmaydi. Ayniqsa bu fikr oddiy so'zlashuv tilida nisbatan to'g'ridir. Oddiy so'zlashuv tilida sintagmalar bir-biri bilan birlashib ketishga moyil bo'ladi. [3/25-bet]. Masalan, *Tanlovda / bizning talabamiz / g'olib chiqqanidan / men / nihoyatda xursandman*. [4/240-bet]. Bu gapning sintagmatik bo'laklarga bo'lingan holatini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek gapga ham, so'z birikmasiga ham mos kelmagan o'rinlar mavjud.

So'zlashuv nutqi va dialogik replika

Tilshunoslik termini sifatida "replika" so'zlovchi suxbatdoshning so'ziga javob, e'tiroz hamda luqmasini ifodalovchi nutq bo'lagidir. [1/42-bet].

- *Rostanmi?*

- *Nega yolg'on bo'lar ekan?* [4/184-bet].

Bu dialog davomida so'zlovchining savoliga tinglovchining javobi shart va zarur bo'ladi. So'zlovchining gapi tinglovchining gapini javob sifatida taqazo qiladi.

So'zlashuv nutqida ilovali qurilmalar

Ma'lumki, so'zlashuv nutqi emotsionalligini oshiruvchi vositalardan biri ilova qurilmalardir. O'zaro nutqiy aloqada suxbatdoshlarning ko'rish va eshitish qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Ana shu ko'rish va eshitish jarayonida turli emotsiyalar vujudga keladi.



Natijada suhbatdoshlar nima to'g'ri kelsa, fikrni shunday davom ettiradi. Xuddi shu jarayonda ilova qurilmalari voqelanadi. Suhbat nutqi uchun tipik hodisa bo'lgan bunday nutqiy bo'lakning lingvistik adabiyotlarda «ajratilgan pauzadan so'ng kelib bog'lanish va ergashish» deb izohlanadi. [1/68-bet].

- *Qachon? – so'radi Abdulla.*

- *Ancha bo'ldi, oltinchi sinfda o'qirmidik o'shanda. Siz bahorgi tactile payti kelgan edingiz.* [4/52-bet].

Ushbu dialogda “*Ancha bo'ldi*” degan javobni to'ldirish, qo'shimcha ma'lumot kiritish uchun “*oltinchi sinfda o'qirmidik o'shanda*”, deb nurqqa ilova qurilmasini kiritayapti.

Xulosa qilib aytganda, “So'zlashuv nutqi sintaksisi” fani tilning dinamik va jonli jarayonini o'rganadi. Mazkur fan talabalarga nafaqat grammatik qoliplarni, balki nutqning pragmatik imkoniyatlarini, ya'ni vaziyatga qarab til birliklarini qanday samarali qo'llashni o'rgatadi. So'zlashuv nutqini alohida tizim sifatida tadqiq etish, o'zbek tili sintaksisining hali o'rganilmagan qirralarini ochishga va nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

So'zlashuv nutqi sintaksisida paralingvistik vositalarning o'rni

So'zlashuv nutqi sintaksisini faqatgina lisoniy birliklar doirasida o'rganish yetarli emas. Jonli muloqotda sintaktik qurilmalarning shakllanishida paralingvistik vositalar (imo-ishora, qarash, holat) va ekstralingvistik vaziyat (kontekst) hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'zlashuv nutqida gapning predikativlik markazi ba'zan so'z bilan emas, balki birgina ishora yoki yuz harakati bilan ifodalanishi mumkin. Bu esa til iqtisodjamligi tamoyiliga mos keladi.

Ilmiy mulohaza: So'zlashuv nutqidagi elliptik gaplar grammatik nuqson emas, balki semantik to'liqlikning pragmatik ko'rinishidir. Ya'ni, tinglovchi va so'zlovchi o'rtasidagi umumiy apperseptiv baza (ikkala tomon biladigan ma'lumot) gapning ikkinchi darajali bo'laklarini tushirib qoldirishga imkon beradi.

Segmentlangan qurilmalar va nominativ mavzu

So'zlashuv nutqi sintaksisiga xos bo'lgan yana bir muhim vazifa — segmentatsiyalangan konstruksiyalarni tadqiq etishdir. So'zlovchi diqqat markazidagi ob'ektni gapning boshiga chiqarib, so'ng u haqida fikrini davom ettiradi.

Masalan: “Anavi talaba bor-ku, kecha kela olmagan, o'shani bugun ko'rdim.” Bu yerda “Anavi talaba bor-ku” qismi gapning temasini (mavzusini) ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Bunday qurilmalar kitobiy tilda kam kuzatilsa-da, jonli nutqda fikrni bosqichma-bosqich uzatish uchun juda qulaydir.

So'zlashuv nutqida gap bo'laklarining tartibi

Inversiya (so'z tartibining buzilishi) so'zlashuv nutqi uchun tabiiy holatdir. Agar adabiy tilda kesim gap oxirida kelishi qat'iy qoida bo'lsa, so'zlashuvda emotsional urg'u tushgan so'z gapning istalgan qismida kelishi mumkin.

Masalan: “Ketdik biz!” (Biz ketdik o'rnida) — bu yerda harakatning sub'ektdan ko'ra muhimroqligi va ekspressivligi kesimni oldinga chiqargan. Tanlanma fan doirasida talabalarga ushbu inversiyaning stilistik va psixolingvistik sabablarini tushuntirish asosiy vazifalardan biridir.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси: Маърузалар матни – Самарқанд: СамДУ, 2009. – 110 б.
2. Karimov S. Nutq madaniyati va mutolaa san'ati: O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 239 b.
3. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
4. Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 352 b.

